



MAHMUD QOSHG‘ARIYNING “DEVONU LUG‘OT IT TURK” ASARIDA MILLIY PEDAGOGIK QADRIYATLAR

Bahodir Abdullajonovich Qo‘chqarov

Turan International University o‘qituvchisi

Annotatsiya. Xalqning donishmandona qarashlari,tajribalarini o‘quvchilar ongiga singdirish,ularda milliy qadriyatlarni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan sifatli ta‘lim o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni va bilimni rag‘batlantiradi,tahlil qilish,milliylikka yo‘g‘rilgan muammolarni hal qilish,fikrlash,kishilar bilan muloqatchanlik ko‘nikmalarini yuqori darajada egallashlarini kafolatlaydi. Bugungi kunda milliy qadriyatlarning tub mohiyati, ularning ma‘naviy ildizlarini anglash uchun yozma merosni izchil o‘rganish zaruriyati.Ana shunday yozma meroslardan biri Mahmud Koshg‘ariyning „Devonu lug‘tit turk” asaridir.11-sinf o‘quvchilari deyarli hayotga tayyor shaxs hisoblanadi.Shu bois ular qalbida milly qadriyatlarga hurmat,sadoqatni tarkib toptirishda o‘qituvchilarning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Mahmud Koshg‘ariyning „Devonu lug‘tit turk” asarida ifodalangan insonparvarlik fazilatlarini kamol toptirishga yo‘g‘rilgan pandnomalarni o‘quvchilarga singdirishda hayot bilan bog‘lab olib boorish,innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘zining ijobiy samarasini beradi

Kalit so‘zlar:Polisemiya, fonemalar, azuqluq,eritmak, azmquluq,etimologiya, klaster, lingvistik,milliy pedagogik qadriyatlar,do‘stlik,hamjihatlik,mehr-sadoqat

Аннотация: Качественное образование, направленное на внедрение в сознание учащихся мудрых взглядов и опыта народа, привитие им национальных ценностей, стимулирует творческое мышление и знания учащихся, анализ, решение проблем, связанных с национализмом, мышлением. гарантирует, что они приобретут высокий уровень навыков общения с людьми. Сегодня необходимо последовательно изучать письменное наследие, чтобы понять суть национальных ценностей и их духовные корни. Одним из таких письменных наследий является труд Махмуда Кошгари «Девону луготит тюрк». в



формировании в их сердцах уважения и верности национальным ценностям имеет особое значение. Книга Махмуда Кошгари «Девону луготит тюрк» используется для воспитания у студентов гуманистических качеств, связывая их с жизнью, а использование инновационных педагогических технологий будет иметь положительный эффект.

Ключевые слова: полисемия, фонемы, питание, слияние, azmquluq, этимология, кластер, лингвистика, национальные педагогические ценности, дружба, солидарность, привязанность.

Annotation. High-quality education aimed at inculcating the wise views and experiences of the people into the minds of students, instilling national values in them, stimulates creative thinking and knowledge in students, analysis, solving problems related to nationalism, thinking. ,guarantees that they acquire a high level of communication skills with people. Today, it is necessary to consistently study the written heritage in order to understand the essence of national values and their spiritual roots. One of such written heritages is Mahmud Koshgari's work "Devonu lug'tit turk". Therefore, the role of teachers in forming respect and loyalty to national values in their hearts is of special importance. Mahmud Koshgari's book "Devonu lughtit turk" is used to teach students the humanistic qualities, connecting them with life and using innovative pedagogical technologies will have a positive effect.

Key words: polysemy, phonemes, nutrition, fusion, azmquluq, etymology, cluster, linguistic, national pedagogical values, friendship, solidarity, affection

Jahonda ta’lim shaxs kamolotini ta’minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo’lmoqda. YUNESCO tomonidan 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “Sifatli ta’lim ijodiy tafakkurni va bilimni rag‘batlantiradi, savodxonlik va hisob malakalari asoslarini, shuningdek, tahlil qilish , muammolarni hal qilish, fikrlash hamda boshqa shaxslararo ijtimoiy munosabat ko‘nikmalarini yuqori darajada egallashni kafolatlaydi”¹ -deb qayd etilgan. Bu esa ta’lim tizimida ta’lim oluvchilarda

¹Incheon Declaration/Education 2030:Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).



ijodiy fikrlash, tanqidiy tafakkur, o‘zini –o‘zi baholash, tarixiy voqelikni anglash, o‘z faoliyatini tahlil qilish, milliy pedagogik qadriyatlarni singdirishda ta’lim oluvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish kabi dolzarb vazifa sifatida belgilanadi.

Xalqaro miqyosdagi pedagogik tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda milliy qadriyatlarning tub mohiyati, ularning ma’naviy ildizlarini anglash uchun yozma merosni izchil o‘rganish zaruriyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ajdodlarimiz tafakkuri mahsuli bo‘lmish ushbu yozma yodgorliklar o‘lkasi ma’naviy boylik sifatida ham qadrlidir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov : ”Qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan betakror ilmiy meros to‘liq o‘rganilmagan, ularni har tomonlama o‘rganish, hozirgi va kelgusi avlodlarga yetkazish barchamizning muhim hamda dolzarb vazifamiz bo‘lmog‘i kerak”²-deb ta’kidlagan edi. Darhaqiqat, yoshlarga o‘tmish ajdodlarimizning boy ijodiy merosi orqali ilm- fan, ma’naviyatimiz, san’atimiz va madaniyatimiz, milliy urf-odatlar, axloqiy qarashlar kabi insoniy tuyg‘ularni o‘zida mujassam etgan milliy pedagogik axloqiy qadriyatlarimizning singdirish, muammolarni hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammoga hukumatimiz tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlaimizni mustqail fikrlaydigan yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”³,- degan da’vatlarini o‘qir ekanmiz, yoshlarimizning milliy va umumbashariy axloqiy qadriyatlar ruhida, har tomonlama sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun ta’lim – tarbiya sohasida ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yoshlarni milliy urf-odatlar, ma’naviy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalashda ularda buyuk ajdodlarimizdan minnatdorchilik, g‘urur tuyg‘usini tarbiyalash kerak.

²Karimov I.A. Ilm-ma’rifat ziyosi hech qachon so‘nmaydi.//. Tanlangan asarlar. 15-jild.-T.:O‘zbekiston, 2007-5.88.

³Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-Toshkent.: O‘zbekiston, 2016-56 B

Zero, ma’naviy, axloqiy mukammallik, vijdonlilik, or-nomuslilik, yaqinlarlariga g‘amxo‘r bo‘lish kabi insoniy tuyg‘ular o‘z –o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ularning asosida milliy qadriyatlar , milliy tarbiya yotadi. Shularni hisobga olgan holda “Devonu lug‘otit-turk” da xalqning bebaho donoligini ifodasi bo‘lgan uch yuzga yaqin maqollar mavjudki, biz buning yoniga ko‘plab pandnomalar, masal va hikoyalarni kiritadigan bo‘lsak, bu asarning milliy pedagogikamiz tarixidagi o‘rni va ahamiyatini tasavvur etish paydo bo‘ladi.

Ularda yosh avlodning aqliy- axloqiy mehnat tarbiyasi, fuqarolik, diniy bag‘rikenlik, badiiy-estetik tarbiyasiga oid nihoyatda qimmatli va nodir tajribalar aks etgan. Xuddi shuning uchun ham bu asarni xalq pedagogikasining nodir namunasi sifatida alohida tadqiq etishgan holda o‘quvchilarga singdirib borish bugungi kundagi muhim masalalardan biridir. Biz ushbu ishimizda 11-sinf „Adabiyot“ darsligi asosida o‘quvchilarda milliy pedagogik qadriyatlarni rivojlantirishga e’tiborimizni qaratdik.

Mavzuga doir tayanch so‘zlar:	Polisemiya, fonemalar, azuqluq,eritmak, azmqluq,etimologiya, klaster, lingvistik
Mavzuning qisqacha ta’rifi:	O‘quvchilarga asarni batafsil tushuntirish, milliy pedagogik qadriyatlar haqida ma’lumotlarni aytish, tanishtirish va o‘rgatish
O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyalari:	1.Metod:”Blits” so‘rov metodi, “Tarmoqli klaster”, “Charxpalak” metodi; 2.Shakl:jamoa, guruh bilan ishlash; 3.Jihoz:mavzuga oid rasmlar, multimedialar, tarqatma materiallari; 4.Nazorat:o‘quvchilarni dars davomida tushunib tinglashlari nazoratga olinadi; 5.Baholash:o‘quvchilarning baholar reytinggi dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning maqsad va vazifalari



Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga asar va undagi milliy pedagogik qadriyatlar haqida ma’lumot berish va qo‘shimcha bilimga ega bo‘lishlarini ta’minlash;

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda do‘stlik, hamjihatlik, mehr va sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish;

Rivojlantiruvchi maqsad: mavzu bo‘yicha o‘quvchi malakasini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija

Dars yakunida o‘quvchilar milliy pedagogik qadriyatlar haqida bilim va malakaga ega bo‘lishadi. O‘quvchilarda do‘stlik, hamjihatlik tuyg‘ulari, bir-biriga bo‘lgan hurmat va muhabbat xususiyatlari shakllanadi.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni
I bosqich. Tashkiliy qism	<ol style="list-style-type: none"> 1. Salomlashish, bugungi kundagi dunyo va Respublikamizda bo‘layotgan siyosiy jarayonlar haqida suhbat. 2. O‘quvchilar davomati aniqlanadi. 3. Har bir o‘quvchining darsga tayyorligi tekshiriladi.
II bosqich. O‘tilgan mavzuni so‘rash va mustahkamlash	<p>Dars davomida bajarilishi lozim bo‘lgan shartlar bilan qayta tanishtirish va barcha shartlarga rioya qilish, dars shiori ishlab chiqish;</p> <p>O‘tilgan darsni “Tezkor savol-javob” metodi orqali so‘rab baholash.</p>
III bosqich. Yangi mavzu bayoni	<ol style="list-style-type: none"> 1. Yangi mavzu o‘tishga tayyorgarlik ko‘rish; 2. O‘qituvchi Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devonu lug‘otit turk” asari, undagi milliy pedagogik qadriyatlarni ko‘rgazmalar orqali tushuntiradi; 3. “Tarmoqli klaster” usuli orqali o‘quvchilar bilimi tekshiriladi.



IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash	Mavzuni mustahkamlash bo‘yicha savol-javoblar o‘tkaziladi. “Charxpalak” metodi orqali mustahkamlanadi.
V bosqich. Baholash Dars yakuni Uyga vazifa	O‘quvchilarning darsda ishtirok etgani hisobga olinib, reytinggi e‘lon qilinadi va dars yakunlanadi. Rag‘bat kartochkalari tarqatiladi. Uyga vazifa beriladi va tushuntiriladi.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism:

O‘qituvchi xonaga kiradi. O‘quvchilar bilan salomlashadi. Bugungi kundagi dunyo va Respublikamizda bo‘layotgan siyosiy jarayonlar haqida suhbat.

O‘qituvchi o‘quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshiradi.

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, hamma darsga tayyormi?

Hamma o‘quvchilar o‘quv qurollari borligini, ya‘ni: daftar, ruchka, darslik, qora qalamlarini tekshirib chiqadi.

O‘qituvchi: Demak, hamma darsga tayyor. O‘quvchilar, bizlar dars davomida nimalarga rioya qilishimiz kerak?

O‘quvchilar: Biz adabiyot darsida tinglash va tushunish qoidasiga hamda ularga rioya qilishimiz kerak.

II. O‘tilgan mavzuni so‘rash va mustahkamlash.

1. Mahmud Koshg‘ariy qachon va qayerda tavallud topgan?

2. Uning ilk ustози kim bo‘lgan?

3. “Devonu lug‘ot it -turk” asari qachon yozila boshlagan va necha yil davomida yozib tugatilgan?

4. Asar kimga bag‘ishlangan?

5. Adabiyotda to‘rtlik shakliga tayanadigan she‘riy janrlarni Koshg‘ariy nima deb atagan?

6. *Munozara* qanday janr hisoblanadi?

7. “Devon”dagi badiiy parchalar qaysi davrga mansub?



8.”Devon”dagi maqollar qaysi mavzularga oid?

9.Badnafslilik haqida qanday maqollar keltirilgan?

10.”Devonu lug‘ot it turk” asarining qanday ilmiy, ma’rifiy va badiiy ahamiyati bor?

III.Yangi mavzuning bayoni

“Devonu lug‘ot it turk” (“Turkiy so‘zlar devoni”) – Mahmud Koshg‘ariyning turkiy tillar haqidagi qomusiy asari (1071-72).Bu asarda XI asarning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda va G‘arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug‘ va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografiyasi, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirilgan. “Devonu lug‘ot it turk”ning qo‘lyozmasi 1914-yil Turkiyaning Diyorbakr shahridan topilgan.319 sahifali bu qo‘lyozma hozirgi Istanbulda saqlanadi.Bu nusxa “Devonu lug‘ot it turk” yozilganidan salkam 200 yildan keyin,ya’ni Mahmud Koshg‘ariyning o‘z qo‘li bilan yozilgan nusxadan 1266-yilda kotib Muhammad ibn Abubakr ibn Fotihal-Soviy Al-Damashqiy tomonidan ko‘chirilgan.

“Devonu lug‘ot it turk” arab tilida yozilgan, 8 mingdan ortiq turkiy so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish maqsadida arabcha harakatlar(harflardagi ost-ust ishoralar)dan foydalanilgan.Bunda,albatta,muallif ancha qiyinchilikka uchragan, chunki arabcha harf va alif, vov, yo ishoralari bilan turkiy tovushlarni berib bo‘lmas edi.Turkiy tildagi cho‘ziq va qisqa unlilar, yumshoq va qattiq tovushlar uchun Mahmud Koshg‘ariy maxsus belgilar (harakatlar)ni qo‘llaydi yoki so‘z boshidagi cho‘ziqlikni ikki alif bilan ko‘rsatadi yoki ikki xil talaffuz qilinadigan so‘zlarga ikki xil ishora qo‘yadi: azuqluq, eritmak so‘zlaridagi E va R harflari ustiga ham kasra, ham damma ishorasini qo‘ygan,demak, bu so‘zlar o‘sha davrda ikki xil talaffuz etilgan: azmquluq-azuqluq, eritmak-erutmak kabi.Arabcha harf bilan ko‘rsatish mumkin bo‘lmagan turkiy talaffuzni “Devonu lug‘otit turk”da izohlab, ta’riflab o‘tgan.”Devonu lug‘otit turk”da,avvalo,otlar, so‘ng fe’llar izohlanadi.So‘zlar tartibi ularning tarkibidagi harflarning orta borishiga (ikki harfdan yetti harfgacha) qarab amalga oshirilgan.


“Devonu lug‘otit turk”da ayniqsa qabila va urug‘ tillariga oid lingvistik ma’lumotlar ancha batafsil berilgan.Bunda har so‘zning ma’nolari (polisemiya,



omonim, sinonim, antonim va arxaik so‘zlar) chuqur tahlil qilinadi, ayrim so‘zlarning etimologiyasiga to‘xtalib o‘tadi. Tovushlar (fonemalar)ning tahlili ancha mukammal: unli va undosh fonemalar, cho‘ziq va qisqa unlilar, ularning urug‘ tillaridagi talaffuzi va orfografiyasi, tildagi fonetik hodisa va qonuniyatlar batafsil izohlangan. Morfologiya sohasida so‘z turkumlarini davr an‘anasiga ko‘ra, uch so‘z turkumiga: fe‘l, ism, bog‘lovchiga bo‘lib, ularning yasaliş va turlanish yo‘llarini ko‘rsatib o‘tadi.”Devonu lug‘otit turk”da 250 dan ortiq maqol va matallar, o‘nlab she‘riy parchalar keltirilgan.

Xususan, asardan qo‘llanma sifatida ham foydalanilgan. V.V. Bartold “Devonu lug‘otit turk”dan o‘z ilmiy ishlarida keng foydalanganini sharqshunos S. Volin ko‘rsatib o‘tgan. Tilshunos olim V.I. Belyayev “Devonu lug‘otit turk” haqida shunday yozadi: “Biz bu asarga nihoyatda yuksak baho berishimiz kerak, chunki u kitoblardan olib yozilmagan, balki jonli materialni shaxsan kuzatishga asoslangan... Muallif bergan ma‘lumotlar... arxeologik kashfiyotlar bu ma‘lumotlarning aksariyatini isbot etmoqda”. Nemis sharqshunosi K. Brokkelman “Devonu lug‘otit turk” asarini 1928-yil nemis tiliga tarjima qildi. “Devonu lug‘otit turk” qo‘lyozmasining fotonusxasi Istanbulda Kilisli Rifat (3 jildli; 1915-17) keyinchalik Besim Atalay tomonidan (3 jildli; 1939-41) turk tiliga tarjima qilinib, chop etilgan. “Devonu lug‘otit turk”ning turk tilidagi keyingi qayta nashri 1957-yilda amalga oshirildi. “Devonu lug‘otit turk” ikkinchi bo‘lib o‘zbek tiliga tarjima qilinib, muhim izoh va tafsirlari bilan 1960-1963-yillari Toshkentda “Fan” nashriyotida 3 jildda chop etilgan. Bu tilshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Solih Mutallibovning 35 yillik mehnati natijasi edi. Ushbu nashr faqat tarjima bo‘lmay, turkcha tarjimaga munosabat, baho, atamalar, shaxs nomlari, shahar va joy nomlariga izoh va tafsir hamdir. O‘zbekcha nashrining muqaddima qismida XI asr filologlari, “Qutadg‘u bilig” asari, Mahmud Koshg‘ariyning lingvistik qarashlari, turkiy qabilalar, ularning shakllanishi, bu urug‘ va qabilalar, tillarning hozirgi turkiy xalqlar va ularning tiliga munosabati, tarjima transkripsiyasi to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan. “Devonu lug‘otit turk” o‘zbekcha nashrining oxirida turkiy urug‘, qabila, shaharlar va boshqalar to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlar bor, asarning har bir jildida havolalar berilib, unda uchragan so‘z va iboralar keng

ta’riflanadi, izohlanadi. O‘zbekcha nashrining muhim tomonlaridan biri, uning har bir jildi asosida tuzilgan ko‘rsatkichdir. Unda “Devonu lug‘otit turk”da uchragan so‘zlar alifbo tarzida keltirilib, so‘zning o‘zbek va rus tilida tarjimasini beriladi. Mazkur so‘zning “Devonu lug‘otit turk”ning qaysi sahifalarida uchrashi (oldin o‘zbekcha, so‘ng turkcha nashrlarining sahifasi, satri) ko‘rsatib o‘tiladi.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. “Charxpalak” metodi asosida yangi mavzu mustahkamlanadi, o‘quvchilar guruhlariga bo‘linadi, ya’ni “Devonu lug‘otit turk” asarida keltirilgan maqollarni mavzu qamroviga ko‘ra guruhlariga ajratib, o‘sha mavzu bo‘yicha asardagi maqollardan keltiriladi. Mavzu o‘yin tarzida boshlanadi, davom etadi, baholanadi va yakunlanadi.

I guruh: Halollik va tekinxo‘rlilik haqida:

1. Birovning qo‘li bilan tikan yulish oson.
2. Yerga boqqan ish qilmas,
Ish qilsa ham, tinch qilmas.
3. Ishlab yegang zog‘orang
Tanangga yog‘dek yoqar.
4. Tekin to‘n qimmatga tushar.
5. Totli tomoq tamuqqa tushirar.



II guruh:To‘g‘rilik va egrilik haqida:

1. Birovni aldama,
Yurgan ko‘changning boshi berk.
2. Ilon o‘z egriligini bilmas,
Tuyaning bo‘ynini egri der.
3. Egilgan daraxtga suyanma,
Seni ham egar.
4. Haqni nohaq etma,
Nohaqni haq etma.
5. Ho‘kiz o‘lsa ham, ko‘zining olaligi qolmas.

III guruh:Mehnatsevarlik va ishyoqmaslik haqida:

1. Aravani ot tortar,
Ko‘lankasin – it.
2. Betashvish bosh qayda,
Mehnatsiz osh qayda.
3. Yotgan yotog‘on bo‘lar,
Sovuqqa qotog‘on bo‘lar.
4. Yigit degan er bo‘lar,
Mehnat ko‘rsa, sher bo‘lar.
5. Mard yigitning labi yog‘lik,
Dangasaning boshi qonlik.

V. Baholash.

Rag‘bat kartochkalari orqali o‘quvchilar bilimlarini baholash. Baholash marosimida har bir o‘quvchining bahosini izohlab berish. Baholash vaqtida o‘quvchilarni shaxsiy munosabatlarini emas, balki bilimlarini, say’-harakatlarini hisobga olish.

Uyga vazifa.



Mavzuni qunt bilan o‘qish va “Mahmud Qoshg‘ariy – qomusiy olim” mavzusida esse yozish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Incheon Declaration/Education 2030:Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).
- 2.Karimov I.A. Ilm-ma’rifat ziyosi hech qachon so‘nmaydi.//. Tanlangan asarlar. 15-jild.-T.:O‘zbekiston, 2007-5.88.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-Toshkent.: O‘zbekiston, 2016-56 B
- 4.Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk”. Uch tomlik.Birinchi tom. Nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov. O`ZFA nashr T.:, 1960.
- 5.Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk”. Uch tomlik.Ikkinchi tom. Nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov. O`ZFA nashr T.:, 1960
- 6.Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk”. Uch tomlik.Uchinchi tom. Nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov. O`ZFA nashr T.:, 1960.
- 7.To‘xliyev B ,Karimov B,Usmonova.K Adabiyot.O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinf va o‘rta maxsus,kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik.I qism.,,O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi “ davlat ilmiy nashriyoti.Toshkent-2018.